
Bolalar folklor qo'shiqlari lingvokulturologiya fanining tadqiqot obyekti sifatida

Yoqubova Gulasal Farxodjon qizi

g.yoqubova@gmail.com

Tayanch doktorant,

Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya *Ushbu maqolada tilshunoslikda nisbatan yangi yo'nalish bo'lgan lingvokulturologiya fanining mazmuni va ahamiyati, til va madaniyatning o'zaro uzviy bog'liqligi, fanning vujudga kelishi, shakllanishi hamda uning rivoj topishiga hissa qo'shgan tilshunos olimlar va ularning fikr-mulohazalari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek bolalar folklor qo'shiqlarining lingvokulturologiyaning tadqiqot obyekti sifatida talqin qilinishi turli tizimli tillardan olingan bolalar folklor qo'shiqlarining bir necha misollari orqali dalillanadi va qisqacha xulosalar beriladi.*

Kalit so'zlar *Lingvokulturologiya, madaniyatshunoslik, lisoniy madaniy birliklar, nolisoniy madaniy birliklar, lingvofolkloristik birliklar, madaniy axborot, madaniy kod*

Детские фольклорные песни как объект исследования лингвокультурологии

Ёкубова Гуласал Фарходжон кизи

g.yoqubova@gmail.com

Докторант (PhD),

Ферганский государственный университет

Аннотация *В данной статье рассматриваются сущность и значение лингвокультурологии — относительно нового направления в языкознании, органическая взаимосвязь языка и культуры, возникновение и формирование этой науки, а также вклад лингвистов, участвовавших в её развитии, и их научные взгляды. Кроме того, приводятся доказательства трактовки детских фольклорных песен как объекта исследования лингвокультурологии на примере образцов детского фольклора из разных языковых систем, а также предлагаются краткие выводы.*

Ключевые слова *Лингвокультурология, культурология, языковые культурные единицы, неязыковые культурные единицы, лингвофольклористические единицы, культурная информация, культурный код*

Children's Folk Songs as an Object of Linguocultural Studies

Yoqubova Gulasal Farxodjon qizi

g.yoqubova@gmail.com

PhD doctoral student,

Fergana State University

Annotation *This article discusses the essence and significance of linguoculturology, a relatively new direction in linguistics, the intrinsic interrelation between language and culture, the emergence and formation of this field, as well as the linguists who contributed to its development and their viewpoints. It also demonstrates how children's folklore songs are interpreted as an object of research in linguoculturology, providing examples of children's folklore songs from various languages and offering brief conclusions.*

Keywords *Linguoculturology, cultural studies, linguistic cultural units, non-linguistic cultural units, linguo-folkloristic units, cultural information, cultural code*

Kirish

Lingvokulturologiya fani tilshunoslik fanlari ichida nisbatan yangi yo'nalish hisoblanib, tilshunoslikning boshqa tarmoqlariga nisbatan ancha keyinroq shaklangan deb hisoblanadi. Tilshunoslarning fikricha, "lingvokulturologiya" termini lotincha "lingua" – "til", "cultus" – "hurmat qilish, ta'zim qilish", yunoncha "ilm, fan" kabi so'zlardan kelib chiqqan bo'lib, Moskva frazeologik maktabi rahbari V.N. Teliya(1996)ning lingvistik tadqiqotlari natijasi o'laroq paydo bo'lgan. Uning fikriga ko'ra, "Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog'i insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antropologik paradigмага xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir".

Lingvokulturologiya aynan madaniyatshunoslik hamda tilshunoslik tutashgan nuqtada paydo bo'lgan deyish mumkin. Madaniyatshunoslik (kulturologiya) insonni ijtimoiy va madaniy hayotidagi uning tabiat, jamiyat, tarix, san'at va boshqa sohalarga ko'ra o'zini o'zi anglashini tadqiq etsa, tilshunoslik tilda olam lisoniy manzarasining mental modellar ko'rinishida aks etadigan va qayd qilinadigan inson dunyoqarashini o'rganadi(Usmonova, 2019). Lingvokulturologiya esa tom ma'noda etnolingvistika hamda sotsiolingvistika bilan chambarchas bog'liq bo'lib, madaniyat va til o'rtasidagi aloqalar, ularning o'zaro ta'siri, har bir xalq va millat madaniyatining tilda aks etishi kabi hodisalarni o'rganadi. Til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik insoniyat tajribasida chuqur ildiz otgan tushunchalardan sanaladi. Ushbu ikki tushuncha nafaqat bir-birini aks ettirish balki o'zaro shakllanishga qadar keng maydonni qamrab oladi. Aslini olganda, til

faqatgina so'zlar majmui emas, balki insoniyat va jamiyatning tarixiy, ijtimoiy, intellektual, ma'naviy va hissiy qatlamlarini o'zida mujassamlashtirgan madaniy koddır. Ta'kidlash kerakki, til madaniyatni ifoda etuvchi vosita hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Lingvokulturologiya tilshunoslikning alohida mustaqil yo'nalishi sifatida XIX asrning 90-yillarida ko'zga tashlana boshladi. Tilshunoslarning fikriga ko'ra, lingvokulturologiyaning shakllanishida V.fon Gumbolt va uning g'oyalari lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajralib chiqishida progressiv kuch sifatida xizmat qilgan. V.fon Gumbolt til va madaniyat o'rtasidagi masalalar ilk bor ko'rib chiqqan shaxs sifatida talqin qilinadi. Har bir xalqning tarixi, madaniyati va ruhiy dunyosi shakllanishida tilning o'rni beqiyosligini ta'kidlab, uni "millatning ruhi" deb ataydi. V.fon Gumboltga ko'ra, "Til – xalq g'oyalarining shunchaki ifodachisi emas, balki xalqning bir butun ma'naviy quvvatidir; tillarning turfa bo'lishi esa bitta narsaning turlicha nomlanishi bo'lmay, shu narsani turlicha tasavvur qilish, ko'rishdir. Til hamisha millatning o'ziga xosligini ifoda etadi". (Maxmaraimova, 2017)

Mashhur rus tilshunosi N.F. Alefirenko (2010) lingvokulturologiyaga quyidagicha ta'rif beradi:

- lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik bilan chambarchas bog'langan bo'lib, u sintezlovchi xususiyatga ega;
- lingvokulturologiyaning asosiy e'tibori tilda izohlanadigan madaniy dalillarga qaratiladi;
- lingvokulturologiya tilshunoslik fanlariga kiradi, shuning uchun uning tadqiqot

natijalaridan ona tili va chet tillari o'qitish jarayonida amaliy foydalanish mumkin;

- lingvokulturologiya tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlari:
 - a) lisoniy shaxs
 - b) til madaniy qadriyatlarining semiotik gavdalantirish tizimi hisoblanadi.

Shuningdek B.L. Uorf, Y.L. Vaysgerber, A. Vejbitskaya, Y.S. Stepanov, V.V. Vorobyov, V.I. Karasik, A.D. Arutyunova, X. Glins, X. Xols, D. Uitni, D.U. Pauell, F. Boas, G. Brutyan, D. Xaymz kabi olimlar ham o'z izlanishlari orqali lingvokulturologiya fani rivojiga hissa qo'shganlar. V.V. Vorobyov (1999)ning ta'kidlashicha, bugungi kunda lingvokulturologiyani muayyan yo'l bilan saralangan madaniy qadriyatlar majmuini o'rganadigan, nutqni yaratish va uni idrok qilishdagi jonli kommunikativ jarayonlarni, lisoniy shaxs tajribasini, va milliy mentalitetni tadqiq etadigan, olam manzarasining lisoniy tasvirini tizimli ravishda beradigan, ta'limning bilim olish, tarbiyaviy va intellektual vazifalarining bajarilishini ta'minlaydigan yangi filologik fan sifatida qayd qilish mumkin. Demak, lingvokulturologiya madaniyat va tilning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'sirini va bu jarayonni lisoniy va nolisoniy (madaniy) birliklarning bir butun strukturasi sifatida aks ettiradigan kompleks fandır.

V.A. Maslova ham ushbu sohaga doir tadqiqotlar olib borib, lingvokulturologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishini quyidagi bosqichlarga ajratadi:

1. Fan shakllanishiga turtki bo'lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi. V.A. Maslovaga ko'ra, ushbu bosqichda V. fon Gumbolt, E.Sepir, E. Benvenist, L. Vaysgerber, A.A. Potebnya kabi tilshunoslarning ishlari muhim o'rin tutadi. Yuqoridagi olimlarning g'oyalari va izlanishlari lingvokulturologiya fanining vujudga kelishida asos vazifasini bajaradi. Ushbu dastlabki bosqich XIX asr oxiridan XX asr o'rtalarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan bo'lib, bu davrda til va madaniyat o'rtasidagi

munosabatlarga qiziqishning ortishi, lekin hali alohida fan sifatida to'liq ajratib olinmagani hamda izlanishlar asosan falsafa, psixologiya va etnografiya fanlari kesishmasida olib borilgani bilan xarakterlanadi.

2. Lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi. Ushbu davr XIX asr oxirlariga to'g'ri kelib, tilshunoslikning kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika kabi yo'nalishlaridagi yutuqlarining natijasi o'laroq, madaniyatning tilda akslanishi hodisasi uzil-kesil tan olindi. Antroposentrik paradigma kuchayishi biland tilni inson ongi, madaniyati bilan o'zaro bog'lab o'rganish ehtiyoji oshib borib, lingvokulturologiyaning alohida fan sifatida ajralib chiqishiga turtki bo'ldi. Ushbu davrda tilshunoslikda lisoniy shaxs, konsept, lingvomadaniy makon, madaniy konnotatsiya kabi kategoriyalar shakllanib, N.Teliyaning frazeologik birliklardagi madaniy semantika ustidagi tadqiqot ishlari alohida ahamiyat kasb etdi.
3. Lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi. Ushbu rivojlanish davri XXI asr boshlaridan to hozirgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib barcha darajadagi birliklar ustida tadqiqotlar olib borish, nazariyani takomillashtirgan holsa yangi yo'nalishlar ochish bilan xarakterlanadi. Bu davrda lingvokulturologiya mustaqil fan sifatida ham nazariy ham amaliy jihatdan rivojlanib, tadqiqotlar ko'lami sezilarli darajada kengaydi. Avvallari izlanishlar asosan leksik birliklar, xususan, so'zlar va frazeologik birliklar ustida olib borilgan bo'lsa, endilikda grammatika, sintaksiz, matn, xulq-atvor(diskurs) kabi lisoniy hodisalar ham tadqiqot obyekti sifatida o'rganiladigan bo'ldi.

Bugungi kunda lingvokulturologiya mustaqil fan sifatida madaniy munosabatlar lingvokulturologiyasi, qiyosiy lingvokulturologiya, chog'ishtirma lingvokulturologiya, lingvomadaniy

leksikografiya, diaxronik lingvokulturologiya kabi yo'nalishlarga ega bo'lib, tilshunoslikning madaniyat bilan bog'liq masalalarini o'z ichiga oladi. Har bir xalqning tilida o'ziga xos tovlanishlar, idiomatik iboralar, lingvofolkloristika namunalari mavjud bo'lib, ular jamiyatning qadriyatlari, e'tiqodi va qadimiy an'ana, urf-odatlarini til vositasida yordamida kelajak avlodga uzatiladi. Masalan, tilda paydo bo'ladigan har bir tushuncha o'sha tilda so'zlashuvchilarning kundalik turmush tarzi hamda ma'naviy dunyosining mahsuli hisoblanadi. Tilimiz bizning o'zimizning aksimizdir.

Til o'zida so'zlovchining xarakteri va o'sishini aniq ko'rsatib beradi (Davis, 1998). Anglashiladiki, tilda butun bir jamiyatning psixologiyasi ham aks etadi. Madaniyat har doim ham statik tushuncha emas, balki doimo harakatda, o'zgarib, yangilanib boruvchi tuzilmadir. Ushbu jarayonda esa til insonlar o'zaro muloqot markazi, bilim va fikrlar almashinuvini ta'minlaydi. Til orqali nafaqat yangi g'oyalar paydo bo'ladi, yangicha fikrlar qabul qilinadi, balki tilning o'zida ham o'zgarishlar yuz beradi – ya'ni til va madaniyat o'zaro bir-birini shakllantiradi. Shuningdek, til ma'lum bir madaniyatning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Bir tilni o'rganib tahlil qilish orqali o'sha jamiyat madaniyatiga kirish, ularning turli g'oyalari, tushunchalari va qadriyatlarini anglashga yo'l ochadi. Til - madaniyat xazinasi, sandig'i majmuyidir. U leksika, grammatika, iboralar maqol va matallar, folklor, badiiy va ilmiy adabiyot, og'zaki va yozma nutqda madaniy qadriyatlarni saqlab keladi (Robins, 1889).

Lingvokulturologiya jamiyatning o'zaro chambarchas bo'lgan ushbu til va madaniyat tushunchalarining aloqadorligi, munosabatlari, bir-birini shakllantirishi va akslantirishi kabi hodisalarni o'z ichiga oladi. E. Sepir (1993)ga ko'ra, til bizning hayot tarzimizni tavsiflovchi ijtimoiy meros qilib olingan malaka va g'oyalar majmuyi sifatida madaniyatdan tashqari mavjud bo'lolmaydi. Ya'ni, har bir xalq borliqini o'z ona tili orqali ko'radi, his qiladi.

Lingvokulturologiya sohasida tadqiqotlar olib borgan professor Sh. Usmonova(2001)ga ko'ra, lingvokulturologiyaning predmeti madaniyatda ramziy, obrazli, metaforik ma'no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtirib mif, afsona, folklor va diniy diskurslarda, poetik va prozaik badiiy matnlarda, frazeologizmlarda, metaforalarda va ramzlarda aks etadigan til birliklari sanaladi.

Xususan, bir xalqning o'zligi, milliy qadriyatlari, ma'naviy va ruhiy olami, kundalik turmush tarzi va diniy e'tiqodlarini o'zida mujassamlashtiruvchi lingvofolkloristik birliklardan bir bu folklor bolalar qo'shiqlaridir. Bolalar folklori o'zining mavzu jihatidan rang-barangligi hamda bolalarning sof bolalarcha orzu-umidlari, beg'ubor dunyosini ifodalashi bilan ko'nglimizdan alohida joy oladi. Bolalar folklorining xoh u kattalar tomonidan bolalarga atab aytilgan bo'lsin, xoh bolalar tilidan aytilgan bularning barchasida xalqning uzoq yillik tarixi, turmush tarzi, ijtimoiy va axloqiy qadriyatlari, milliy urf- odatlari akslanadi. Taniqli tilshunos L. Elmesov (1996) aytganidek "til nafaqat shaxs stili tushunchasiga, balki o'tmish ajdodlarimiz hayoti voqealariga ham yo'l ochishi mumkin. Bolalar folklor qo'shiqlari ham asrlar davomida avloddan avlodga o'tib sayqallanib, o'zing badiiyligini boyitib, lisoniy, insoniy hamda madaniy xususiyatlarini saqlab kelmoqda. Ushbu folklor namunalari har bir xalqining ko'hna o'tmishi, e'tiqodiy qarashlari, kundalik hayoti, kelajakdan kutuvlarini mujassam qiladi. Aynan bolalar folklori, ayniqsa, bola tilining biyronligi, tasavvurining boyligi, hozirjavoblighi, ota-onasiga, yaqinlariga, umuman olganda hayotga bo'lgan mehrini his qilish mumkin.

Muhokama va Natijalar

Bolalar folklor qo'shiqlarini lingvokulturologiya fanining tadqiqot obyekti sifatida talqin qilinishini quyidagicha asoslashimiz mumkin:

Birinchidan, bolalar folklor qo'shiqlari madaniy axborot tashuvchi vosita hisoblanadi. Ushbu namunalar butun bir xalqning ma'naviy va ruhiy olamini, milliy urf-odat va

qadriyatlarini, tarixiy voqeliklarni, e'tiqodiy qarashlarini hamda kundalik turmush tarzini o'zida mujassam etuvchi qimmatli manbalardir. Misol uchun ingliz bolalar folklor qo'shiqlarining klassik namunasi bo'lgan "Christmas is coming" ("Rodjestvo yaqinlashyapti") nomli qo'shig'i shunday boshlanadi:

"Christmas is coming, the geese are getting fat" (Linda, 2014).

"Rodjestvo yaqinlashyapti, g'ozlar semiryapti.."

Ya'ni, ushbu qo'shiq misrasidan anglash mumkinki, Rodjestvo yaqinlashgani sari g'ozlar semirtirilib, taom pishirishga tayyorlanadi. Ma'lumki, ingliz xalqida Rodjestvo bayramida dasturxoniga kurka go'shti tortish an'anasi bor. Lekin bu odat hamma davrlarda ham mavjud bo'lmagan. 1588-yilda Angliya qirolichasi Yelizavetta Ispan armiyasi ustidan qozonilgan kuni g'alaba sharafiga g'oz go'shtidan ziyofat bergan va keyinchalik bu taom Rodjestvo uchun ham tavsiya etilgan. XVII-XVIII asrlarga kelib oddiy xalq orasida ham bu taomni tayyorlash Rodjestvo an'anasiga aylanadi. Biroq XIX asrdan boshlab Angliyaga kurka importi boshlangandan so'ng g'oz go'shti kurka go'shtiga almashtirila boshlangan. Hozirda ingliz xonadonlarida Rodjestvo dasturxoniga kurka go'shti tortilsa-da, ushbu klassik bolalar folklor qo'shig'ida qadimiy an'ana tarzida aynan "the geese" ("g'oz") so'zi saqlanib qolgan. Ushbu o'rinda bolalar folklor qo'shig'i ilgari mavjud bo'lgan lekin keyinchalik o'zgarishga uchragan an'ana haqida detallarni yosh avlodlarga uzatmoqda.

Shu kabi madaniy axborot tashish funksiyasini rus xalq bolalar folklor qo'shiqlari misolida ham ko'rishimiz mumkin:

Живъ, живъ Курилка! (Yasha, yasha olovcha!)

Живъ, живъ, да умеръ! (Yondi, yondi va o'chdi)

У нашего у Курилки (Bizning olovchamizning)

Ножки долгенька, (Oyog'i uzun,)

Душка коротенька. (Umri qisqa.)

Живъ, живъ Курилка! (Yon, yon olovcha)

Ushbu "Курилка" ("Olovcha") nomli

bolalar qo'shig'i o'yin qo'shig'i hisoblanib, bolalar tayoqchada yonib turgan olovni bir-biriga uzatib ushbu qo'shiqni kuylaydilar hamda qaysi bolani qo'lida olov o'chib qolsa, o'sha bola o'yinda yutqazgan hisoblanadi. Qo'shiq matnida bolalar olovga xuddi insonga murojaat qilgani kabi "Yasha" deb aytadilar, unga hurmat ko'rsatadilar. Olovga bu kabi munosabatlar qadimdagi slavyan xalqlarining e'tiqodiy qarashlariga borib taqaladi. Slavyan qabilalari orasida xristianlikka qadar paganizm deb ataluvchi e'tiqodiy qarash mavjud bo'lib, uning mazmunini olov va quyoshni muqaddas deb bilish tashkil etgan. Slavyan xalqlarida olov bilan bog'liq bo'lgan bir qancha marosimlar mavjud bo'lgan bo'lib, yuqoridagi qo'shiqda ham ana shunday diniy marosimlar va e'tiqodiy qarashlar elementlari aks etadi (Dvornik, 1956). Anglashiladiki, ushbu rus bolalar folklor qo'shiqlarida e'tiqodiy qarashlarga oid madaniy axborot yetkazilmoqda.

Bolalar folklor qo'shiqlarida nafaqat qadimiy urf-odatlar balki ajdodlarimizning kundalik turmush tarzi haqida ham madaniy axborotlar saqlanadi. Buning misolini quyidagi yana bir bolalar folklor qo'shig'ida ko'rishimiz mumkin:

Charxim g'uv-g'uv etadi,

Tovushi Marg'ilon yetadi...

Tor ko'chasi tor ekan,

Yo'lda bazzoz bor ekan.

Shu bazzozning qizlari

Shol ko'ylakka zor ekan... (Sultonov, 1992).

Ushbu qo'shiq matni orqali quyidagicha madaniy axborot yetkazilmoqda:

- a) mehnat va kasb madaniyati haqida – bazzoz (Gazlama bilan savdo qiluvchi do'kondor; gazlamafurush) (O'zbek tilining izohli lug'ati, 2023). Bazzoz kasbi o'tmishda savdo sohasida keng tarqalgan bo'lib, anchayin hurmatli kasb sanalgan. Ushbu so'z orqali o'tmish davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy manzarani ko'rsatib beradi. Ya'ni savdo-sotiq jarayoni

tirikchilik o'tkazishda muhim ahamiyat kasb etib, mato kundalik turmushda muhim mahsulotlardan biri bo'lgan. Shuningdek, bazzoz so'zi tilga olinishi bilan libos, kiyim-kechak va kiyinish madaniyatiga ishora qilinadi. Buning isbotini keying misralarda ham ko'rishimiz mumkin.

- b) kiyim-kechak madaniyati haqida - shol ko'ylak (Yungdan to'qilgan qalin mato, yung gazlama) (O'zbek tilining izohli lug'ati, 2023). Aynan gazlamafurushning qizlari shol ko'ylakka zor bo'lishi ushbu ko'ylak kundalik kiyiladigan emas, balki maxsus kunlarda: bayramlarda, marosimlarda va mehmondorchilikka kiyiladigan ko'ylak hisoblangan.
- c) geografik-madaniy xususiyatlar - Marg'ilon shahri. Ma'lumki, azal azaldan Marg'ilon shahri milliy matolarimiz atlas, adras kabilar bilan mashhur bo'lgan. Yuqoridagi bolalar folklor qo'shig'ida ham isbotini ko'rishimiz mumkin. Qo'shiq matnida "Marg'ilon" nomining tilga olinishi qadimdan uning to'qimachilik va ipakchilik markazi sifatida qadrlanishini ko'rsatmoqda.
- d) kundalik ish quroli – charx. Charx – jun, paxta ipni yigirish uchun ishlatiladigan va asosan ayol-qizlar tomonidan ishlatiladigan kundalik turmushning bir qismi bo'lgan asbobdir. Charxning ovozi esa oddiy xalq hayotining ajralmas qismidir.

Anglashiladiki, ushbu birgina bolalar folklor qo'shig'i orqali birato'la 4 turdagi madaniy axborot uzatilmoqda. Shuningdek, ba'zi folklor qo'shiqlarida siyosiy voqealar haqida ham axborot uzatilishi mumkin:

Baa baa black sheep, have you any wool?
(Baa baa qora qo'y, juning bormi?)

Yes sir, yes sir, three bags full, (Ha, janob, ha, janob, uch xalta to'la.)

One for the master, one for the dame (Biri xo'jayinga, biri xonimga,)

And one for the little boy. (Va biri yo'l oxirida yashovchi.)

Who lives down the lane. (kichkina bolakayga.)

Ingliz bolalar qo'shig'ini tadqiq etgan L.Alchinga ko'ra, ushbu qo'shiq O'rta asrlargacha Angliya iqtisodiyotining muhim qismi bo'lgan jun sanoati bilan bog'liq. Uning talqiniga ko'ra, qirol Edvard I davrida Yevropada eng sifatli jun mahsuloti Angliyada ishlab chiqarilgan bo'lib, uning davrida eksport qilingan jun xomashyosi soliqqa tortiladi va har bir portlar bo'ylab soliq yig'ish boshlanadi. Ushbu qo'shiqda esa ushbu jarayon siyosiy satira orqali ochib beriladi. Shuningdek, ushbu bolalar qo'shig'ini "Teng Imkoniyatlar" siyosatiga mos kelishi uchun 2006-yilda o'zgartirilib "black sheep" ("qora qo'y") o'rniga "rainbowsheep" ("kamalak qo'y") tarzida kuylash joriy qilinishi, biroq oradan ko'p vaqt o'tmasdan jamoatchilik noroziligiga uchraydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bolalar folklor qo'shiqlari madaniy axborotlarni tashuvchi bebaho lingvofolkloristik birliklar hisoblanadi. Qaysi tilda bo'lmasin bolalar folklor qo'shiqlari o'sha tilda so'zlashuvchi xalqning o'tmishi, madaniyati, turmush tarzi va e'tiqodiy qarashlarini o'zida aks ettiradi. Bu esa kelajak yosh avlod va ajdodlar o'rtasida madaniy axborot tashish funksiyasini bajaradi. Yuqoridagi tahlillardan bolalar folklor qo'shiqlarini quyidagi madaniy axborotlarni yetkazishini xulosa qilish mumkin:

1. Milliy-madaniy an'analar;
2. Mehnat va kasb madaniyati;
3. Kiyim-kechak va kiyinish madaniyati;
4. Geografik-madaniy xususiyatlar'
5. Kundalik ish va mehnat asbob-anjomlari.

Bolalar folklor qo'shiqlarining tadqiq qilinmagan xususiyatlari va ochilmagan lingvokulturologik funksiyalari hali ko'p. Ularni nazariy, amaliy va qiyosiy jihatdan tadqiq qilish ishlari zamonaviy lingvokulturologiya fani oldidagi vazifalardan hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Alchin, L. (2014). *The secret history of nursery rhymes* (p. 56). Rhymes World Publications.
2. Davies, L. (1998). *Cesar Chavez: A photo-illustrated biography*. Capstone.
3. Dvornik, F. (1956). *The Slavs in European history and civilization* (pp. 49–51). Rutgers University Press.
4. Robins, R. H. (1989). *General linguistics: An introductory survey* (p. 27). Routledge.
5. Alefirenko, N. F. (2010). *Yazyk i kulturologiya: Tsennostno-smyslovoye prostranstvo yazyka* [Language and culturology: Value-semantic space of language] (p. 21). Flinta; Nauka.
6. Elmesov, L. (1960). Prolegomeny k teorii yazyka [Prolegomena to the theory of language]. In *Novoye v lingvistike* (Vol. 1, pp. 131–256). Moscow.
7. Sapir, E. (1993). *Yazyk: Vvedeniye v izucheniye rechi* [Language: An introduction to the study of speech] (p. 185). Progress.
8. Teliya, V. N. (1996). *Russkaya frazeologiya: Semanticheskij, pragmaticheskij i lingvokulturologicheskij aspekty* (p. 286). Yazyki russkoy kultury.
9. Maxmaraimova, S. T. (2017). *Lingvokulturologiya* (p. 20). Cho'lpon nomidagi nashriyot.
10. Maxmaraimova, S. T. (2017). *Lingvokulturologiya* (p. 27). Cho'lpon nomidagi nashriyot.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. (2023). *Birinchi jild* (p. 330). G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.
12. Sultonov, Y., Rahmonov, N., & Turdimov, S. (1992). *Chittigul to'plami*. O'qituvchi nashriyoti.
13. Usmonova, S. (2019). *Lingvokulturologiya*. Fan va texnologiyalar.
14. Vorobyov, V. V. (1999). O statuse lingvokulturologii [On the status of linguoculturology]. In *Russkiy yazyk, literatura i kultura na rubezhe vekov* (Vol. 2, pp. 125–126). Proceedings of the IX MAPRYAL Congress, Bratislava.
15. English Heritage. (2025). *Christmas dinners through history*. <https://www.english-heritage.org.uk/christmas/christmas-dinners-through-history/>